

QUYI AMUDARYO HUDUDIDA HAYKALTAROSHLIK SAN'ATI MAKTABINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Sadaddinov Sharafaddin Xaytboy o'g'li

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Tarix kafedrası o'qituvchisi,

sharofaddinsadaddinov2821@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-0641-7663>

Annotatsiya: Mazkur tezisda Quyi Amudaryo hududida, ya'ni qadimgi Xorazm vohasida miloddan avvalgi IV–III asrlardan milodiy IV asrgacha bo'lgan davrda haykaltaroshlik san'atining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Arxeologik tadqiqotlar natijasida aniqlangan Qo'yqirilgan-qal'a va Tuproqqal'a yodgorliklari materiallari asosida Xorazm haykaltaroshlik maktabining texnik, uslubiy va ikonografik xususiyatlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari Xorazm haykaltaroshlik san'ati mahalliy an'analar va tashqi madaniy ta'sirlar sintezi asosida rivojlanganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Qadimgi Xorazm, Quyi Amudaryo, haykaltaroshlik san'ati, terrakota, Tuproqqal'a, Qo'yqirilgan-qal'a, ikonografiya.

Kirish

Qadimgi Xorazm sivilizatsiyasi O'rta Osiyoning eng qadimiy madaniy markazlaridan biri bo'lib, Quyi Amudaryo vohasida miloddan avvalgi VI ming yillikdan boshlab rivojlanib kelgan. Bu hududda tasviriy san'atning turli ko'rinishlari, xususan, haykaltaroshlik san'ati o'ziga xos rivojlanish yo'lini bosib o'tgan. Xorazm haykaltaroshlik maktabining shakllanishi va taraqqiyoti mahalliy an'analar hamda ellinistik, kushon va boshqa madaniy ta'sirlar sintezi natijasida yuz bergan. Mavzuning dolzarbligi shundaki, Xorazm haykaltaroshlik san'atining tarixiy rivojlanish jarayonlarini chuqur o'rganish O'rta Osiyo tasviriy san'atining umumiy tarixini to'liqroq tushunish imkonini beradi. Shuningdek, qadimgi Xorazm aholisining dunyoqarashi, diniy e'tiqodlari va madaniy aloqalarini aniqlashda haykaltaroshlik asarlari muhim manba hisoblanadi. Mazkur tezisda Quyi Amudaryo hududida miloddan avvalgi IV–III asrlardan milodiy IV asrgacha bo'lgan davrda haykaltaroshlik san'atining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari arxeologik materiallar asosida tahlil qilinadi.

Tadqiqot tarixi va manbashunosligi

Xorazm haykaltaroshlik san'atini ilmiy jihatdan o'rganish XX asrning 30-yillaridan boshlab faollashdi. Ayniqsa, S.P. Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi faoliyati natijasida Qo'yqirilgan-qal'a va

Tuproqqal'a kabi yirik yodgorliklarning kashf etilishi mazkur sohaning ilmiy tadqiqotlar doirasiga keng jalb etilishiga zamin yaratdi. Ushbu yodgorliklardan aniqlangan haykaltaroshlik namunalari Xorazm tasviriy san'atining o'ziga xosligini ochib berdi.

S.P. Tolstov, M.G. Vorob'yova, G.A. Pugachenkova, Yu.A. Rapoport kabi olimlarning ilmiy ishlari Xorazm haykaltaroshlik san'atining texnik, ikonografik va uslubiy xususiyatlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Arxeologik manbalar sifatida Qo'yqirilgan-qal'a va Tuproqqal'adan topilgan terrakota haykalchalar, loy, alabastr va toshdan yasalgan haykallar, ossuariylar hamda rangtasvir namunalari asosiy tadqiqot manbalarini tashkil etadi.

Xorazm haykaltaroshlik san'atining vujudga kelish sharoitlari

Quyi Amudaryo vohasining qulay geografik joylashuvi va sug'orma dehqonchilikka asoslangan xo'jalik tizimi Xorazmda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy muhitni shakllantirdi. Miloddan avvalgi IV–III asrlarda ilk shahar markazlarining paydo bo'lishi, davlatchilikning mustahkamlanishi va hunarmandchilikning rivojlanishi haykaltaroshlik san'ati taraqqiyoti uchun zarur sharoit yaratdi. Zardushtiylik dinining keng tarqalishi esa diniy mazmundagi haykaltaroshlik asarlariga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirdi.

Arxeologik tadqiqotlar Xorazm haykaltaroshlik san'atining bir necha tarixiy bosqichda rivojlanganini ko'rsatadi. Ilk bosqich miloddan avvalgi IV–III asrlarga taalluqli bo'lib, Qo'yqirilgan-qal'a yodgorligidan topilgan terrakota haykalchalar bilan tavsiflanadi. Ushbu davr haykallari asosan diniy mazmunga ega bo'lib, ular mahalliy e'tiqodlar bilan bog'liq tasvirlarni aks ettiradi. Texnik jihatdan sodda, frontal kompozitsiyaga ega haykalchalar qolip va qo'lda ishlov berish usulida tayyorlangan.

Miloddan avvalgi II–I asrlarda Xorazm haykaltaroshlik san'atida tashqi madaniy ta'sirlar kuchayadi. Bu holat ellinistik dunyo bilan madaniy aloqalar natijasida yuzaga kelgan bo'lib, haykallarda realizm unsurlarining ortishi, proporsiyalar va plastik yechimlarning takomillashuvida namoyon bo'ladi. Ushbu davrda terrakota bilan bir qatorda alabastr va toshdan ishlangan haykallar ham uchray boshlaydi.

Milodiy I–III asrlar Xorazm haykaltaroshlik san'atining eng yuksak taraqqiyot bosqichi hisoblanadi. Tuproqqal'a yodgorligidan topilgan saroy majmuasi va undagi monumental haykallar ushbu davr san'atining yuksak darajada bo'lganini tasdiqlaydi. Haykallar ko'p qatlamli texnikada ishlangan, yuzasi alabastr bilan qoplangan va rangtasvir bilan bezatilgan. Ushbu asarlarda mahalliy ikonografik an'analar bilan ellinistik san'at uslublarining uyg'unlashuvi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Milodiy III–IV asrlarga kelib, siyosiy va iqtisodiy jarayonlar ta'sirida monumental haykaltaroshlik asta-sekin pasaya boshlaydi. Biroq mayda plastika, xususan, terrakota haykalchalar yaratish an'anasi saqlanib qoladi. Bu davr haykallarida shakl va mazmunning soddalashuvi, mahalliy an'analarning ustuvorligi kuzatiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Quyi Amudaryo hududida haykaltaroshlik san'ati uzoq tarixiy rivojlanish jarayonini bosib o'tgan bo'lib, u mahalliy an'analar va tashqi madaniy ta'sirlar sintezi asosida shakllangan. Qo'yqirilgan-qal'a va Tuproqqal'a yodgorliklari materiallari Xorazm haykaltaroshlik maktabining o'ziga xos uslubiy va texnik xususiyatlarga ega bo'lganini ko'rsatadi. Ushbu san'at turi qadimgi Xorazm jamiyatining diniy qarashlari, mafkuraviy tasavvurlari va davlat tuzilmasini o'rganishda muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Толстов С.П.** Древний Хорезм. — М.: Изд-во АН СССР, 1948.
2. **Толстов С.П.** Хорезмская экспедиция 1939 г. // КСИИМК. — № 6. — М., 1940.
3. **Воробьева М.Г.** Древний Хорезм. — М., 1967.
4. **Ягодин В.Н.** Art Values of the Land of Khorezm. — Ташкент: San'at, 2009.
5. **Двуреченская Н.Д.** История изучения терракотовой пластики Средней Азии. — М., 2004.
6. **Ртвеладзе Э.В.** Древние цивилизации Средней Азии. — Ташкент, 2001.